

SHOYIM BO‘TAYEV ROMANLARINING BADIYATI

Barnoxon Yakubova
UrDU 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Biz ushbu maqolada Shoyim Bo‘tayevning nasriy romanida obrazlar olami va ruhiyat talqinini tahlil qildik va mazmun-mohiyatini misollar orqali ochib berishga harakat qildik.

Аннотация. В данной статье мы проанализировали мир образов и трактовку психики в прозаическом романе Шоима Ботаева попытались на примерах раскрыть его суть.

Annotation. In this article, we analyzed the world of images and the interpretation of the psyche in Shoyim Botayev's prose novel and tried to reveal its essence through examples.

Kalit so‘z: folklorizmlar, maqol, matal, rivoyat, badiiy asar, badiiy obraz, qahramon kechinmasi.

Ключевые слова: фольклоризм, пословица, маталь, повествование, произведение искусства, художественный образ, героический опыт.

Key words: The importance of folklorisms in the art of the work is analyz.

Bugungi kunda adabiyot sohasida kata o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Kitobxonlikka ayniqsa badiiy adabiyotga e‘tibor kundan kunga yanada kuchayib, yetilib kelayotgan avlod qalbida, ongu shuurida, badiiy-estetik qarashlarni shakllantirish va ularni yetuk va komil inson qilib tarbiyalashda adabiyotning o‘rni naqadar beqiyos ekanligi chuqurroq anglab yetilmoqda. Bu o‘rinda Prezidentimizning ijodkorlarga qarata aytgan ushbu so‘zlarini keltirish joizdir: —Inson qalbini, uning dard-u tashvishlarini, xalqning orzu-intilishlari, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini betakror so‘z, ohang va ranglarda tarannum etishni o‘z hayotining ma‘no-mazmuni deb biladigan siz, muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli,

mas'uliyatli va sharaflil ekanini barchamiz yaxshi bilamiz²⁹. Ushbu jumalalarda Prezidentimiz tomonidan badiiy ijod sohasida qalam tebratib kelayotgan ijodkorlarning fidokorona mehnatlari yuksak e'tirof etilgan.

IX asrda yashab o'tgan arab filologi Ibn al-Mu'tazzning fikrga ko'ra, arab tilida "badaa" masdari (fe'li) "yangilik" degan ma'noni bildiradi³⁰. Badiiylik iborasi esa go'zallik, latofatlilik, nafislik demakdir. Shu sabab ham "badiiylik" atamasi adabiyotning eng nozik jihati ila aloqador, shuning uchun ham e'tiborimizni tortadi. Chunki asarda yangilik bo'lmasa, yoinki uning o'rniga qaytariq, takror bo'lsa, badiiy asar adabiyotga kerak emas aslida. Har bir asar taqdirini ritorika emas, aksincha yangilik, nafosat hal qiladi. Shuning uchun yaxshi yozilgan badiiy asar millat va jahon adabiyoti tarixiga kiradi. Yangilik esa asarning mazmun jihatiga ham, shakl tomoniga ham tegishli bo'ladi. Yangi narsa esa ohorlidir. Diqqatni tez tortadi va maftunkor bo'ladi. Har qanday yangilik ruhiy va ma'naviy ehtiyoj tufayli kelib chiqadi va kishilar talabini qondirishi darkor. Shu sabab ham o'zbek adabiyotshunosligida nasriy asarlar badiiyati, xarakterlarni yuzaga chiqaruvchi sujet hamda kompozitsion tamoyillar bilan bog'liq bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda ham. Shu o'rinda matn transformatsiyasi muallif pozitsiyasida shakllanayotgan sujet va kompozitsiya bilan yaxlitlik hosil qilishi, romaniy tafakkur asar qurilishida muhimlik jo bo'lishi, uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ta'sir ko'rsatishi, yozuvchi konsepsiyasining umuminsoniy tamoyillar bilan boyishi, romanlardagi sujet va kompozitsiyaning mahorat bilan ishlanishida yaqqol ko'rinmoqda.

Bilamizki, adabiyot badiiylik, ya'ni go'zallik qonunlari to'g'risida bahs yuritadi va ana shu yo'lda rivojlanadi. Go'zallik tashqi va ichki bo'ladi, ikkalasi uyg'un holatda yashaydi. Inson badiiy asarni ana shu go'zallik sabab o'qiydi, undan bahramand bo'ladi, unga intilib yashaydi. Ana shu holat go'zallik bilan o'quvchi inson orasidagi aloqani keltirib chiqaradi. Bu hol badiiylik bilan aloqador ekanligi ham tabiiy hodisa ekanligini ko'rsatadi, chunki badiiylik yangilik ma'nosidan, shaklidan, go'zallikdan

²⁹Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //Xalq so'zi gazetasi. – Toshkent, 2017-yil. 4-avgust.

³⁰www.ziyouz.com kutubxonasi

tashqarida yashay olmaydi. Go‘zal asarni o‘quvchi maroq bilan o‘qiydi. Ich-ichiga singib o‘qiydi. Bag‘riga bosib o‘qiydi. Unutilmas syujetlarga takror takror ko‘z yugurtiradi. Ushbu tushuncha haqida ko‘plab ajdodlarimiz fikr bildirishgan. Misol uchun mazkur tushuncha, ya‘ni “badiiylik” haqida tushuncha buyuk fors tojik shoiri Abdurahmon Jomiy asarlarida ham uchraydi. U inson ko‘pgina kalomlarni tahlil qila turib, Salmon Sovajiy haqida shunday deb yozadi: “Uning ikkita masnaviy kitobi bor, biri “Jamshidi Xurshid” bo‘lib, uning uslubi sertakallufligidan badiiyat chegarasidan chiqib ketgan. Ikkinchisi – “Firoqnoma” deb ataladigani badiiyatda yuksak va nazmiyotda latif”³¹. “Badiiylik” atamasi Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarida ham keltirilgan. Unga ko‘ra, Alisher Navoiyning “Agar xonada kishi bo‘lsa, sharpaning o‘zi kifoya” degan misrasiga nisbatan ishlatilgan³².

“Xudojnik” so‘zi “mohir” degan ma‘noni bildiradi. “Xudojestvennost”, ya‘ni “badiiylik” so‘zi ayni shu so‘zdan kelib chiqqan. Badiiylik atamasiga Yevropada birinchilardan bo‘lib nemis faylasufi Gegelda duch kelinadi. Mazkur atama Rossiyada XIX asrda paydo bo‘lgan bo‘lib, o‘zbek adabiyotshunosligida o‘tgan asrning boshlarida mazkur so‘zning muqobili ishlatila boshlangan. Abdurahmon Sa‘diy, Fitrat asarlarida, o‘quv qo‘llanmalarida “nafis”, “nafis adabiyot” singari istilohlar bevosita badiiy adabiyot, undagi badiiylik, go‘zallikka nisbatan ishlatilgan³³. Zero “nafis” so‘zining ko‘pligi nafoyis va bu go‘zallik, nafislik, nozik, ko‘rkamlik, chiroylilik kabi qator ma‘nolarga ishora qiladi.

Adabiyotdagi badiiylik haqida bahs yuritar ekanmiz, san‘atning deyarli barcha ko‘rinishlarida badiiylik mavjud. Masalan kino, teatr, rassomlik va hokazo. Ularni farqlab turuvchi jihat san‘atning materialida aslida. Hozirgi zamonda bu san‘at turlarida badiiylikning umumiy belgilari yo‘q emas. Umumiylik hamma san‘at turlarining obraz bilan ish ko‘rishidir. Ana shulardan xulosa qilib aytishimiz

³¹Абдурахмон Жомий. Баҳористон. – Т. 1979. -, Б.75. 3 Давлатшоҳ Самакандий. Шоирлар бўстони (“Тазкирани шуаро”дан Б.Аҳмедов таржимаси). –Т.: Адабиёт ва санъат, 1981, -Б.190. 27. Краткая литературная энциклопедия. Том 8. –М. Советская энциклопедия, 1975. – С.339.

³² Крачковский И.Ю. Избранные сочинения в 6-томах. Т.6. М.-Л. Наука, 1960. – С.281.

³³ Abdurahmon Sa‘diy. “Oktabr o‘zgarishi va o‘zbek adabiyoti”. –Т.: Turkiston, 1922-yil, 7-noyabr; Абдурауф Фитрат. “Танланган асарлар” – Т.; Маънавият, 2009.

mumkinki, “Badiiylik – san’at sohasiga oid bo‘lgan ijodiy mehnat samarasini belgilovchi ichki (tuzilishiga oid) xususiyatlarning murakkab yig‘indisi hisoblanadi”³⁴.

Har qanday badiiy asarda so‘z va matn, obraz, xarakter, shaxs va qahramon, qism va butun, mavzu va g‘oya, badiiy konflikt kabi o‘nlab adabiy komponentlar sujet va kompozitsiya yaxlitligida badiiy-estetik g‘oyaviylikka xizmat qiladi. Shuningdek, badiiy asarda kompozitsion vositalarning sujet izchilligini ta’minlashdagi vazifalariga falsafiy-estetik idrok olami, psixologik holatni yuzaga chiqarishi, hamda badiiy-g‘oyaviy jihatlarini yaxlitlashtirish ilmiy- nazariy o‘rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot ob’ekti sifatida Shoyim Bo‘tayeovning “Shox” hamda “Qo‘rg‘onlangan oy” romanlari tanlab olindi.

Shoyim Bo‘tayeovning ijodkor sifatidagi faoliyati adabiyotshunoslikda keng tadqiq qilinmagan ishlardan biridir. Keyingi yillarda Shoyim Bo‘tayeov ijodi, umuman olganda, o‘zbek adabiyotshunosligida roman va roman syujeti, badiiy tafakkur va kompozitsion butunlik borasida qator ishlar amalga oshirildi. M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, U.Normatov, N.Karimov B.Nazarov, A.Rahimov, H.Umurov, Q.Yo‘ldoshev, Y.Solijonov, D.Quronov, B.Karimov singari olimlar masalaning ayrim qirralarini qisman o‘rganishgan³⁵. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlardan M.Sharafiddinova, M.Pirnazarova, Z.Pardayeva,

³⁴ Роднянская И.В.Художественность. КЛЭ. Т.8.- М.: 1975.-Стр. 338.

Шарафиддинова М.О. Особенности повествовательной структуры узбекского романа XX века в контексте мировой литературы. Автореф. дис. док.фил.наук. –Т., ТАИ, 2010;

Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари. Филол. Фан. д-ри. дисс. автореф. –Т., 2003;

Дониярова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий руҳ ва қаҳрамон муаммоси. Филол. Фан. д-ри. дисс. ...автореф. –Т., 2016;

Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол. фанлари д-ри. дисс. ...автореф. –Т., 2018;

Шофиев О. Эркин Аъзам насри бадийати (киноя ва образ). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Самарқанд, 2019.

Sh.Doniyarova, M.Tojiboyeva, U.Jo‘raqulov, I.Yakubov, A.Nasirov, E.Djurakulova kabilarning dissertatsiyalarida masalaning ayrim jihatlari tadqiq etilgan.

Sh.Bo‘tayevning romanlariga to‘htaladigan bo‘lsak, adib o‘zining ajoyib uslubiga, badiiyatiga, xarakter va obrazlariga, betakror tiliga ega bo‘lgan yozuvchi ekanligini bugungi kunda uning kitobxonlari, muxlislari tan olishadi. Shuningdek, bugungi kun o‘zbek adabiy tanqidchilari adib asarlari to‘g‘risida ko‘plab ijobiy fikrlarni bildirishgan bo‘lsa, ko‘plab ijodiy davralarda bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bu - bekorga emas albatta. Uning ijodi milliy nasrchiligimizning eng yaxshi an‘analarini jahon nasrchiligi yutuqlari bilan mushtarak tarzda ifoda etishda namoyon bo‘lmoqda. Uning mehnati yuksak qadrlangan va qadrini yo‘qotmay kelmoqda. Shu sabab ham yozuvchi «Do‘stlik» ordeni bilan taqdirlangan.

Darhaqiqat, Shoyim Bo‘tayev hayotiga to‘htaladigan bo‘lsak, u iste‘dodli adiblardan biri bo‘lib, 1959-yil 20-iyunda Tojikistonning O‘ratepa tumaniga qarashli Maydoncha qishlog‘ida tug‘ilgan. 1976-yili o‘rta maktabni, 1982-yili esa Xo‘jand Davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetini tugatgan.

Uning mehnat faoliyati «Guliston» jurnalidan boshlangan bo‘lib, keyinchalik hozirgi «Tong yulduzi» gazetasida bo‘lim mudiri, keyinchalik esa «Cho‘lpon» nashriyotida muharrir bo‘lib ishladi.

Bundan tashqari, Shoyim Bo‘tayev O‘zbekiston radiosining «Adabiyot va radioteatr» Bosh muharririyatining Bosh muharriri, «O‘zbektelefilm» studiyasi Bosh muharriri lavozimlarida ham samarali faoliyat olib borib, o‘zbek milliy madaniyati, adabiyoti va san‘ati rivojlanishiga munosib ulush qo‘shdi.

Shu yillarda u talay badiiy va hujjatli filmlarning, radiopostanovkalarining adabiy ssenariylarini yozdi. Hozirda Shoyim Bo‘tayev “Cho‘lpon” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosh muharrir o‘rinbosari bo‘lib ishlamoqda.

Uning adabiyotga kirib kelishiga to‘htaladigan bo‘lsak, Sh.Bo‘tayev adabiyotimizning qutlug‘ dargohiga 80-yillarning o‘rtalaridan kirib kelgan. Dastlab, talabalik davri hayotini ifodalovchi hikoyalar yozgan. Uning “Sirli yulduzlar” nomli

ilk qissasi 1984-yilda “Sharq yulduzi” jurnalida nashr qilingan. Xuddi shu yili uning yana “Dunyoning sarhisobi bor” nomli qissalar to‘plami chop etilgan.

1988-yilga kelib adibning “Endi bari boshqacha” nomli hikoyalar to‘plami “Cho‘lpon” nashriyotida bosilib chiqadi. 1995-yilda esa Shoyim Bo‘tayevning «Shamol o‘yini» nomli qissa va hikoyalar majmuasi “Yozuvchi” nashriyotida chop etiladi, bir yildan so‘ng “Qo‘rg‘onning oyi” romani “IPAK Sharq” nashriyotida chop etildi.

Keyingi yillarda adibning “Kunbotardagi bog‘”, “Hayot”, “Ko‘chada qolgan ovoz” kabi qissa va hikoyalar to‘plamlari nashr etildi. Uning ilk romani “Qo‘rg‘onlangan oy” va “Yettinchi tong” romanlari bo‘lgan bo‘lsa, boshqa yozuvchi va adiblar haqidayam esselar yozib tugatgan. Masalan Shukur Xolmirzayev haqida “Shukur, ayt-chi bu hayot nima?”, Odil Yoqubov haqida “Odil Yoqubov fenomeni” kabi esselari biln kitobxonlar orasida yaxshigina tanilgan. Bundan tashqari, I.V.Savitskiy haqidagi “Orfey iltijosi xaloskori” essesi “Eng ulug‘, eng aziz” Respublika tanlovida g‘olib bo‘lgan.

Yozuvchining bir qator asarlari rus, ingliz, nemis va tojik tillariga tarjima qilingan.

Sh. Bo‘tayevning ijodi milliy nasrchiligimizning eng yaxshi an‘analarini jahon nasrchiligi yutuqlari bilan omuxta tarzda ifoda etishda namoyon bo‘lmoqda. Xuddi shu jihatdan uning “Shox” va “Qo‘rg‘onlangan oy” romanlari e‘tiborga loyiqdir. Garchi roman qishloq kishilari hayoti, orzu-intilishlari haqida hikoya qilsa-da, aslida xalqimiz ma‘naviyatiga xos milliy ildizlar, manbalar va hamisha yashovchan samarali an‘analarni ham ko‘z-ko‘z qiladi.

Ayniqsa, qishloq kishilariga xos fe‘l-atvor, samimiy va beg‘ubor tuyg‘ular nihoyatda go‘zal va shirali tilda, oddiy, aniq va ravon tasvirlanadi. Shular asarga joziba bag‘ishlaydi.

O‘ziga xos yozuvchi, hozirgi o‘zbek prozasini qurolbardorlaridan biri Shoyim Bo‘tayev Tojikiston respublikasi Xo‘jand viloyatining O‘ratepa tumanidagi Chorbog‘ qishlog‘ida tavallud topgan.

Shoyim Bo'tayevning o'nlab hikoyalari "Kun botardagi bog", "Shamol o'yini", "Eski arava", "Muyulishdagi uy", "Sho'rodan qolgan odamlar" kabi qissalari, "Qo'rg'onlangan oy" va "Shox" romanlari o'z kitobxonlariga yetib borgan. Adibning kichik yoki katta hajmli asarlarining barchasida ham ko'p betakror obrazlar, tabiat tasvirlari, xalqning yashash tarzi, urf-odatlar bilan birgalikda o'zbeklarga, turkiy xalqlarga xos milliy ruh, milliy his-tuyg'ular, milliy so'zlashuv shevalarining yorqin uchkunlari yaqqol o'z aksini topgan, desak xato bo'lmas.

Har bir ijodkor adabiyotga o'z mavzusi, "men"i, qahramonlari, betakror tili bilan kirib keladi. Shoyim Bo'tayev qahramonlari takrorlanmas ko'rinishga, ruhiy holatga, o'z tiliga, o'z milliyligiga ega. Yozuvchi qissalarida bir-biriga o'xshash kishilar uchraydi. "Shamol o'yini" qissasida Zokir bulbul ismli oshiq haqida gapiriladi. "Qo'rg'onlangan oy" romanida ham Zokir baxshi obrazi yaratiladi. "Shamol o'yini" qissasidagi momouloq tanavvul qilayotgan kampirlar "Kunbotardagi bog" qissasidagi Ulg'ay momo tanish-bilishlari teng-to'shlariga o'xshab ketadi. Bu obrazlar tasviri, ruhiy xolati, tili, harakatlari tasviri shunday beriladiki, undan o'zbeklarga xos xususiyat turkiy xalqlardagi milliy shaxsiyatni sezmaslikni iloji yo'q.

Shoyim Bo'tayev qishloq kishilariga xos xususiyatlarni topib-topib ko'rsatadi. Masalan, o'zbek borki, laqab to'qishni yaxshi ko'radi. Laqablar kasbga, nasabga, fe'l-atvoriga, tashqi ko'rinishga ko'ra to'qiladi. Aytish lozimki, adib ayni shu o'rinlarda ham millatga tegishli, milliy rux beradigan so'zlarni qahramonlarni ismlariga joylashga urinadi. Zokir baxshi, Tilak mirishkor, Jondachi amaki, Nu'mon qirtish, Ergash kalta, Nabi muallim, Raxim indamas, Vali qassob, Mutal jarchi, Sunnat o'g'ri, Dakan oqsaqol... kabi bir qancha obrazlar kitobxon yodidan chuqur o'rin oladi.

Yozuvchi asarlaridagi yakrov, gumsiyo, payxova, toyinot, tavnobi, shoyon nopisand, gulzun- donak, ufunat, nargiyo, koshoy, chalpapakazon, charxin tovoq, horiquloda hodisa, kalolot, obdast olmoq, xobi xotir, qo'lontayoq, qamg'oq singari so'zlari uchraydiki, ular aynan turkiy xalqlar tilidagi, shevalaridagi o'ziga xoslikni ifodalab, asar ruhiyatini ochishda ahamiyatli o'rin egallaydi va bu kitobxon diqqatini o'ziga tortadi.

Djo‘raqulova Elmira “Shoyim Bo‘tayev” romanlarida sujet va kompozitsion yaxlitlik” dissertatsiyasini himoya qilgan bo‘lib, unda ijodkorning ijodi borasida quyidagi xulosalarni berib o‘tadi:

1. Adabiy jarayonda yozuvchi o‘z o‘rniga ega bo‘lib, u keyingi yillarda adabiyotshunoslar e‘tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Turli xil katta-kichik tadqiqotlarda adib asarlariga, uning ijodiga bo‘lgan mulohazalar bildirilmoqda. Bularning barchasi yozuvchi izlanishlariga bo‘lgan jamoatchilikning haqqoniy munosabatidan kelib chiqmoqda. Bu esa adibning ijodiy jarayondagi o‘rnini belgilash imkonini beradi.

2. Yozuvchi “Shox” romanida sujetni qiziqarli tarzda ifodalaydi. Ba’zi o‘rinlarda dialogik “bo‘rttirish”lar mavjud esa-da, aytilayotgan asosiy fikr mantiqiy izchillikka raxna solmaydi. Yozuvchi sujetni juda puxta tuzgan. Asar g‘oyasidan oziqlangan ijodkor konsepsiyasi qiziqarli sarguzashtlarni yodimizga soluvchi real voqelik sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Adib romanda turli xil obrazlar xarakterini puxtalik bilan tasvirlaydi. Ayniqsa, o‘z manfaatlari yo‘lida har qanday pastkashlikdan qaytmaydigan qator shaytoniy obrazlar ko‘rinishlari tahlillarga manba vazifasini o‘tadi. Adib ana shu obrazlarning surat va siyratini mahorat bilan tavsiflaydi. Bosh qahramon ruhiyatidagi uzil-kesil voqealarni roman poetikasida jiddiy sinovdan o‘tkazadi.

O‘quvchida ular haqida hissiy achinish tuyg‘usi namoyon bo‘ladi. Shuningdek, asarda xilma-xil epizodik obrazlarni ham ustalik bilan tavsiflanishi adib mahoratining yuksakligidan dalolat beradi.

4. Murtazo obrazi – murakkab va o‘zgaruvchanligi bilan boshqa xarakterlardan ajralib turadi. Agar u qurilish kombinatida o‘zining dadilligi va mardligini isbotlay olganida edi, keyinchalik hayot so‘qmoqlarida boshqacha qiyofada namoyon bo‘lardi. Bu holatni o‘zining xarakter xususiyatidan kelib chiqqan tabiati ekanligi bilan o‘lchash muhimlik kasb etadi.

5. Mavluda ham boridan-yo‘g‘i noma’lum obraz sifatida ishtirok etadi. Yozuvchi Mavludadagi qat’iyatni biroz e‘tibordan chetda qoldirgan. U o‘z xayollari bilan olishadi, kurashadi. Murtazoni to‘g‘ri yo‘lga solish uchun oilada ayolning o‘rni

beqiyos ekanligini unutmaslik lozim. Yozuvchi ayni shu o‘rinlarda bu qahramonga befarq munosabatda bo‘lishi sun‘iylikni keltirib chiqargan.

6. Badiiy xronotop yozuvchining ijodiy konsepsiyasi mahsuli sifatida namoyon bo‘ladigan asosiy sujet kategoriyalaridan biridir. Yozuvchi ana shu unurni qishloq, shahar, tog‘, yo‘l, uchrashuv shakllari negizida voqelikka muqoyasa qiladi. Har qanday obrazni gavdalantirishda – badiiy xronotopning roli katta ahamiyatga ega ekanligini yodga soladi.

7. Badiiy xronotop negizida ham asar sujeti, ham xarakter badiiy tadriji, ham obrazlilik, ruhiy tahlil qirralari ochila boradi. Janob Ximer tabiatidagi o‘zgarishlar, Qulmahmudning fojeaviy hayoti makon va zamonda kechgan tafsilotlarda ochiqilanadi. Bular o‘z-o‘zidan yozuvchi konsepsiyasini barqarorlashtirishga xizmat qilgan.

8. “Qo‘rg‘onlangan oy” romanida yozuvchi mifologik talqin o‘ziga xosligini badiiy xronotop, ya’ni o‘tmish va bugun zaminida dalolatlashga erishadi. Zokir bulbul rivoyat-u afsonalari ovul hayotiga ranginlik bag‘ishlaydi. Murtazo qalbidagi zulm va yovuzlikni o‘quvchiga tushunarli tarzda ifodalashga e’tibor beradi.

9. “Shox” romanida uchrashuv, yo‘l va shahar xronotoplari Hotam va uning manfur rejalarini ro‘yobga chiqarish vositasi sifatida keltiriladi. Qulmahmudning nafs ketidan tubsiz chohga yiqilish va bedavo dardga muhtaloligi adib konsepsiyasining asosini ochib beradi. Zero, ushbu xronotop shakllari sujet va kompozitsion yaxlitlik sintezini maromiga yetishida kalit vazifasini o‘taydi. Asardagi she’riy parchalar ham mifologik kiritmaga mos tushib, voqelikni o‘ziga xos tarzda uyg‘unlashtiradi.

10. O‘tgan asrning so‘nggi choragida badiiy adabiyotdagi poetik talqinning o‘zgarishi, uning zamirida milliy xarakterlarning badiiy ifodasi asosida umuminsoniy g‘oyalarning talqiniga ham jiddiy e’tibor qaratildi. Milliy xarakterlar asosida inson fojialarni yoritish ustuvor muammolardan biriga aylandi. Shu jihatdan milliy o‘ziga xoslik, qadriyatlar ifodasining talqini asosida insoniyat fojialarini talqin etish an’anasi

yetakchilik qilgan. Bu esa ijodkor badiiy mahorati bilan bir qatorda, davr va inson muammolarining badiiy ifodasida yanada teranlashdi.³⁶

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //Xalq so‘zi gazetasi. – Toshkent, 2017-yil. 4-avgust.
2. Абдурахмон Жомий. Баҳористон. – Т. 1979. -, Б..75. 3 Давлатшоҳ Самақандий. Шоирлар бўстони (“Тазкираи шуаро”дан Б.Аҳмедов таржимаси). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981, -Б.190. 27. Краткая литературная энциклопедия. Том 8. –М. Советская энциклопедия, 1975. – С.339.
3. Крачковский И.Ю. Избранные сочинения а 6-томах. Т.6. М.-Л. Наука, 1960. – С.281.
4. Abdurahmon Sa‘diy. “Oktabr o‘zgarishi va o‘zbek adabiyoti”. –Т.: Turkiston, 1922-yil, 7-noyabr; Абдурауф Фитрат. “Танланган асарлар” – Т.; Маънавият, 2009.
5. Роднянская И.В.Художественность. КЛЭ. Т.8.- М.: 1975.-Стр. 338.
6. Шарафиддинова М.О. Особенности повествовательной структуры узбекского романа XX века в контексте мировой литературы. Автореф. дис. док.фил.наук. –Т., ТАИ, 2010;
7. Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари. Филол. Фан. д-ри. дисс. автореф. –Т., 2003;
8. Дониярова Ш. Истиклол даври ўзбек романларида миллий рух ва қахрамон муаммоси. Филол. Фан. дри. дисс. ...автореф. –Т., 2016;
9. Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол. фанлари д-ри. дисс. ...автореф. –Т., 2018;

³⁶ Djurakulova E. Shoyim Bo‘tayeв romanlarida sujet va kompozitsion yaxlitlik. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand -2023

10. Шофиев О. Эркин Аъзам насри бадиияти (киноя ва образ). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Самарқанд, 2019.
11. Djurakulova E. Shoyim Bo'tayev romanlarida sujet va kompozitsion yaxlitlik. Filologiya fanlari d-ri. diss(PhD)...avtoref. – S.,2023
12. Пирназарова М. Ҳозирги ўзбек романчилигида услубий-шаклий изланишлар. Филол. фанлари д-ри. номзоди. ...автореф. –Т., 2006;
13. Насиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. Филол. фанлари д-ри. дисс. ...автореф. – Самарқанд, 2018;